O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 348.46(5751)

TOLIBJONOVA MUXLISA FAYZULLA QIZI

HALOL STANDARTLARINI MEHMONXONALARGA QO'LLASH IMKONIYATLARI

71010401 – «Turizm (ziyorat turizmi)» mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. A.Abduvohidov

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar **i.f.d., prof. A.Abduvohidov**

Kafedra mudiri **i.f.d., prof. A.Eshtayev**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani **i.f.d., prof. J.I.Karimqulov**

Men, _____(F.I.Sh)
ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardor

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI BAYONNOMASI

2025 yil "10" aprel

Magistratura 2-kurs "Turizm (ziyorat turizmi)" mutaxassisligi MTZ-24guruhi talabasi Tolibjonova Muxlisa ning "Halal standartlarini mehmonxonalarga qo'llash imkoniyatlari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

Annotatsiya, kirish qismini to'g'rilash kerak.
Foydalanilgan komunalgoya karda xatolik.
Adabiyotlar ro'yxati to'g'ri rasmiylashtirilmagan.
Jadval va grafiklar yo'q.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi**) Tavsiya etiladi

Komissiya raisi: Eshtayev Alisher

Komissiya a'zolari: Abduvohidov Abdumalik
Norchayev Asadullo
Akbarova Mahbuba
Abidova Dilfuza

Izoh: Dastlabki himoyaga kirishda talabaning magistrlik dissertatsiyasi, plagiatga tekshirilganligi, ilmiy rahbari xulosasi, ichki taqrizchilarning taqrizlari, amaliyot kundaligi, tavsifnoma, kamida 2 ta ilmiy maqola(tezis)si nusxalari bo'lishi talab etiladi.

Annotatsiya

Mazkur dissertatsiya ishida mehmonxona xizmatlari sohasida halol standartlarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Unda halol turizm konsepsiyasi, uning xalqaro bozordagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Halol standartlarga asoslangan mehmonxona xizmatlari musulmon sayyohlar talablariga javob berishi, xizmat sifati va raqobatbardoshligini oshirishi ta’kidlangan.

Tadqiqotda Malayziya, Turkiya, BAA va Indoneziya tajribasi asosida halol sertifikatlash tizimi, uning mezonlari va iqtisodiy samaradorligi tahlil etilgan. O‘zbekistonda ushbu standartlarni joriy etish imkoniyatlari, infratuzilma, me’yoriy baza va xalqaro talablar bilan mosligi baholangan. Xususan, halol ovqat, ibodat sharoiti va alohida yashash joylariga oid xizmatlar holati bo‘yicha empirik tahlil o‘tkazilgan.

Natijada, O‘zbekistonda halol mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishda raqamli texnologiyalar va sertifikatlash jarayonlari asosida xalqaro halol turizm bozoriga integratsiya yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: Halol turizm, mehmonxona xizmatlari, musulmon sayyohlar, halol standartlar, ziyorat joylari, ichki turizm.

Annotation

This dissertation explores the theoretical and practical foundations for implementing halal standards in the hotel service sector. It analyzes the concept of halal tourism, its position in the global tourism market, and the current trends in its rapid development. Hotel services based on halal standards are considered a key direction for meeting the needs of Muslim travelers, ensuring high service quality, and enhancing competitiveness in the hospitality industry.

The study examines the halal certification systems, criteria, and economic effectiveness based on the experiences of countries such as Malaysia, Turkey, the United Arab Emirates, and Indonesia. It also assesses the possibilities for adapting hotel services in Uzbekistan to halal standards by analyzing the existing infrastructure, legal framework, and compliance with international requirements. An empirical analysis was conducted on the availability of services tailored to the needs of foreign Muslim tourists, such as halal food, prayer facilities, and gender-segregated accommodations.

Based on the research findings, specific proposals and recommendations were developed for integrating halal standards into hotel services in Uzbekistan. The dissertation highlights pathways for aligning Uzbekistan's hospitality sector with the global halal tourism market, taking into account digital technologies and certification processes.

Keywords: Halal tourism, hotel services, Muslim tourists, halal standards, pilgrimage sites, domestic tourism.

MUNDARIJA

KIRISH.....**3**
I BOB. MEHMONXONALARDA HALOL STANDARTLARNI JORIY ETISHNING ASOSLARI VA ZARURATI.....**10**
1.1. Halol standartlar konsepsiyasi va ularning turizm sohasida shakllanishi.....10
1.2. Mehmonxona sohasida halol standartlarga bo'lgan ehtiyoj.....20
1.3. Halol standartlarning xizmat sifati va mijozlar ishonchiga ta'siri.....26
I Bob bo'yicha xulosa.....30
II BOB. MEHMONXONA SOHASIDA HALOL STANDARTLARINI QO'LLASHNING XALQARO TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....**31**
2.1. Halol standartlarni turizm va mehmonxona sohasida qo'llashning global tendensiyalari.....31
2.2. Halol standartlarni joriy etishda uchraydigan iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy muammolar.....39
2.3. Halol standartlarni joriy etishni qo'llab-quvvatlovchi xalqaro tashkilotlar va ularning mexanizmlari.....45
II Bob bo'yicha xulosa.....55
III BOB. HALOL STANDARTLARNI QO'LLASHDA O'ZBEKISTONNING IMKONIYATLARI VA XALQARO TAJRIBA.56
3.1. Halol mehmonxona xizmatlarini rivojlantirishda O'zbekistonning salohiyat.....56
3.2. O'zbekiston mehmonxonalarida halol xizmatlarni joriy etishning hozirgi holati.....60
3.3. Halol mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar.....64
III Bob bo'yicha xulosa.....67
Xulosa.....**68**
Foydalanilgan adabiyotlar.....**70**

KIRISH

Tadqiqotning dolzarbligi. So‘nggi yillarda turizm sanoati jadal rivojlanib, mijozlarga xizmat ko‘rsatishda sifat, xavfsizlik va axloqiy yondashuv asosiy mezonlarga aylana boshladi. Xususan, sayyohlarning madaniy va diniy qadriyatlarini inobatga olgan holda xizmat ko‘rsatish zamonaviy mehmonxona infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Ana shunday yondashuvlardan biri – halol standartlarni mehmonxona sohasiga tatbiq etish bo‘lib, u nafaqat musulmon sayyohlar, balki xavfsiz, gigiyenik va mas’uliyatli xizmatlarni afzal ko‘ruvchi barcha mijozlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Halol standartlarning asosi islomiy tamoyillarga borib taqaladi: ular oziq-ovqat, tozalik, ibodat uchun qulaylik, axloqiy qadriyatlar va xizmat ko‘rsatishdagi shaffoflik kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv, birinchi navbatda, musulmon aholining ehtiyojlariga javob beradi, ular sayohat qilganda o‘z e’tiqodlariga mos muhit izlaydilar. Islom Hamkorlik Tashkiloti (OIC), SMIIC va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan halol standartlar aynan shu ehtiyojlarni institutsional darajada tartibga solishga xizmat qiladi.

Biroq, zamonaviy global tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, halol standartlar bugun kengroq auditoriyaga – jumladan, sog‘lom turmush tarzini, ekologik barqarorlikni, ishonchli va mas’uliyatli xizmatni qadrlovchi mijozlarga ham mos kelmoqda. Malaysia Halal Industry Development Corporation (HDC) ma’lumotlariga ko‘ra, halol mehmonxona xizmatlariga nafaqat musulmonlar, balki boshqa diniy va madaniy qatlamlarga mansub mijozlar ham yuqori baho bermoqda. Halol xizmatlar turistik brend ishonchliligini oshirib, mehmonxona reytingini mustahkamlovchi muhim omilga aylanmoqda.

O‘zbekiston turizm sohasida yuksalish bosqichida turibdi. Sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro standartlarga mos xizmatlar taklif etish va barqaror turizmni shakllantirishda halol standartlarni joriy etish muhim